



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 156 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Iloxmon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqitirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYACHINING KREATIV ROLI

UDK: 373.2:37.036

Botirova Lobar Kamolovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrası magistri

ORCID: 0009-006-1497-5329

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida tarbiyachining kreativ faoliyati, pedagogik mahorati va innovatsion yondashuvlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Ijodiy muhitni shakllantirish, interaktiv metodlardan foydalanish, o'yin, san'at va muammoli vaziyatlar orqali bolalarning tasavvur va tafakkurini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, tarbiyachining shaxsiy namunasi va kasbiy kompetensiyasi bolalar ijodkorligining muhim omili ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ijodiy qobiliyat, kreativlik, tarbiyachi, pedagogik mahorat, innovatsion metodlar, ijodiy muhit.

Abstract: This article analyzes the importance of the educator's creative activity, pedagogical skills, and innovative approaches in the process of developing creative abilities in preschool children. It highlights the formation of a creative environment and the development of children's imagination and thinking through interactive methods, games, art, and problem-based situations. Furthermore, the educator's personal example and professional competence are substantiated as key factors in fostering children's creativity.

Key words: preschool education, creative abilities, creativity, educator, pedagogical skills, innovative methods, creative environment.

Аннотация: В данной статье анализируется значение креативной деятельности воспитателя, его педагогического мастерства и инновационных подходов в процессе развития творческих способностей детей дошкольного возраста. Освещаются вопросы формирования творческой среды, использования интерактивных методов, игр, искусства и проблемных ситуаций для развития воображения и мышления детей. Также обосновывается, что личный пример и профессиональная компетентность воспитателя являются важными факторами формирования детской креативности.

Ключевые слова: дошкольное образование, творческие способности, креативность, воспитатель, педагогическое мастерство, инновационные методы, творческая среда.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – ijodiy fikrlay oladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan va innovatsion tashabbus ko'rsatishga qodir shaxsni tarbiyalashdir. Jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichida inson kapitalining sifati, ayniqsa, yosh avlodning intellektual va kreativ salohiyati davlatning barqaror rivojlanish omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim bosqichi bolalar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishning poydevor davri hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davri bolaning psixik jarayonlari – tasavvur, tafakkur, nutq va emotsional sezgirlik jadal rivojlanadigan bosqichdir. Aynan shu davrda bola atrof-muhitni faol o'zlashtiradi, o'yin va ijodiy faoliyat orqali o'z "men"ini anglay boshlaydi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirish pedagogik jarayonning ustuvor yo'nalishiga aylanishi zarur. Bu jarayonda tarbiyachining kreativ yondashuvi, innovatsion metodlardan foydalanishi va pedagogik mahorati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.



Jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri – har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlovchi va ijodkor shaxsni tarbiyalashdir. Yosh avlodni ma'naviy va intellektual jihatdan yetuk etib voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ilm-fan taraqqiyoti va madaniy darajasi bevosita ta'lim tizimining sifati va samaradorligi bilan belgilanadi ^[1].

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish, ayniqsa, maktabgacha bosqichdan boshlab ta'lim sifatini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta'lim tizimining jamiyat hayotidagi o'rni haqida shunday ta'kidlagan edi: "Maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi" ^[2].

Mazkur fikrlar maktabgacha ta'lim bosqichining yosh avlod tafakkurini shakllantirishdagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Ayniqsa, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli muhim omil sifatida maydonga chiqadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalasi jahon pedagogik va psixologik tadqiqotlarida keng o'rganilgan. Amerikalik olim J. P. Guilford divergent fikrlash nazariyasini ishlab chiqib, ijodkorlikni noodatiy yechim topish qobiliyati bilan bog'laydi. E. P. Torrance esa ijodiy fikrlashni baholash metodikasini ishlab chiqqan bo'lib, ijodkorlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini asoslab bergan ^[4].

L. S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida esa bolaning ijodiy qobiliyati ijtimoiy muhit va kattalar bilan o'zaro hamkorlik jarayonida shakllanishi ta'kidlanadi. "Yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi bolalarning mustaqil fikrlashga o'tish jarayonida pedagogning yo'naltiruvchi rolini belgilaydi ^[5].

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlar va ijodkorlikni rivojlantirishga oid qator ilmiy ishlar olib borilgan. Xususan, interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari va STEAM yondashuvi bolalarning analitik hamda badiiy tafakkurini uyg'un rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy asoslangan ^[6; 7].

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, UNICEF) tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda maktabgacha yoshdan boshlab ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash barqaror rivojlanish maqsadlarining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ rolini aniqlash va ilmiy asoslashga qaratildi. Tadqiqot metodologiyasi pedagogika, bolalar psixologiyasi hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'zaro integratsiyasiga tayangan holda ishlab chiqildi. Unda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyili, faoliyatga asoslangan yondashuv va konstruktivistik pedagogik konsepsiyalar metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot jarayonida bolaning ijodiy rivojlanishi ijtimoiy muhit, pedagogik sharoit va tarbiyachining kasbiy mahorati bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida ko'rib chiqildi. Metodologik jihatdan bola ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida talqin etildi, ya'ni uning mustaqil fikrlashi, tasavvuri va tashabbuskorligi asosiy o'ringa qo'yildi. Shu nuqtayi nazardan, tarbiyachining kreativ faoliyati bolalarda ijodiy tafakkurni faollashtiruvchi muhim omil sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim muhitida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar kompleks ravishda o'rganildi. Shuningdek, pedagogik jarayonni tahlil qilish, kuzatish, tajriba-sinov ishlari, suhbat va diagnostik metodlardan foydalanildi. Amaliy bosqichda innovatsion metodlar (muammoli vaziyatlar, loyihaviy faoliyat, o'yin texnologiyalari, STEAM elementlari) qo'llanilib, ularning bolalar ijodiy faolligiga ta'siri kuzatildi va natijalar qiyosiy tahlil qilindi.

Metodologik jihatdan tadqiqot nazariy va amaliy bosqichlarning uzviy bog'liqligiga asoslandi. Nazariy tahlil orqali ijodiy qobiliyat va kreativlik tushunchalarining pedagogik mazmuni aniqlashtirildi, amaliy bosqichda esa tarbiyachining kreativ yondashuvi bolalarning mustaqil fikrlash, tasavvur va muammoni hal etish ko'nikmalariga qanday ta'sir ko'rsatishi empirik ravishda o'rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yondashuvi shundan iboratki, unda tarbiyachining kreativ roli faqat metodik vosita sifatida emas, balki pedagogik jarayonning strategik omili sifatida talqin qilindi. Bu esa maktabgacha ta'limda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha yosh davri bolaning psixofiziologik, ijtimoiy va intellektual rivojlanishida tayanch bosqich hisoblanadi. Aynan ushbu davrda shaxsning asosiy sifatlari, dunyoqarashi, idrok jarayonlari hamda ijodiy tafakkurining dastlabki elementlari shakllana boshlaydi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini erta aniqlash, ularni rag'batlantirish va izchil rivojlantirish pedagogik jarayonning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

Bolalarning shaxsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish jarayoni ijodiy tafakkur, tasavvur, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish hamda estetik didni shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir. Bunday rivojlanish faqat an'anaviy reproduktiv metodlar asosida emas, balki innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta'limiy yondashuvlar orqali samarali tashkil etilishi mumkin ^[8].



1-rasm: Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli va zamonaviy pedagogik yondashuvlar modeli



O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar maktabgacha ta'lim mazmunini yangilash va boyitishni taqozo etmoqda. Endilikda tarbiyachidan nafaqat bilim berish, balki bolalarning tafakkurini faollashtirish, ularning ijodiy va analitik salohiyatini rivojlantirish talab etilmoqda. Bu jarayonda tarbiyachining kreativ yondashuvi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Pedagogning yangicha fikrlashi, innovatsion loyihalarni ishlab chiqishi va ta'lim jarayoniga integratsiya qilishi bolalarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Mashg'ulot jarayonlarini mazmunan boyitish, ularni jonlantirish va bolalarni faol ishtirokchi sifatida jalb etish hozirgi ta'lim texnologiyalarining asosiy tamoyiliga aylangan. Xususan, muammoli vaziyatlar, o'yin texnologiyalari, loyihaviy ta'lim hamda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. STEAM yondashuvi esa ilmiy va badiiy tafakkurni uyg'un holda rivojlantirish imkonini beradi. Amaliy tajribalar, konstruktorkilik faoliyati, tasviriy san'at va matematik topshiriqlar orqali bola bir vaqtning o'zida analitik hamda estetik idrokni shakllantiradi. Bu jarayonda tarbiyachi tashkilotchi va yo'naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi ^[9].

Shuningdek, TRIZ texnologiyasi (ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi) bolalarda noodatiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda kreativ yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv bolani izlanishga, tashabbuskorlikka va yangilik yaratishga undaydi. Pedagog TRIZ elementlaridan foydalgan holda bolalarning qidiruv faolligini kuchaytiradi, ularni "har bir vaziyatda ijodkorlik" tamoyiliga asoslangan fikrlashga yo'naltiradi ^[10].

Ijodiy qobiliyat – bu yangi g'oya, tasvir yoki faoliyat mahsulini yaratishga intilish, intellektual va emotsional faollikning uyg'unlashgan ko'rinishidir. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodkorlik divergent fikrlash, tasavvur va ichki motivatsiya bilan chambarchas bog'liq ^[8]. Maktabgacha yoshda bola o'yin, musiqa, dramatik ifoda va tasviriy faoliyat orqali o'z dunyoqarashini namoyon etadi. Shu sababli mazkur faoliyat turlarini maqsadli va tizimli tashkil etish ijodiy qobiliyatlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion yondashuvlarning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muhitiga bog'liq. Ijodiy muhitda bola o'z fikrini erkin ifoda etadi, xatolardan qo'rqmaydi va tashabbus ko'rsatishga intiladi. Tarbiyachi esa bu jarayonda motivator, maslahatchi va ilhomlantiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. U bolalarning har bir g'oyasiga hurmat bilan yondashib, individual qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash orqali ijobiy pedagogik muhit yaratadi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va tarbiyachining kreativ kompetensiyasini oshirish strategik ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon nafaqat bolaning shaxs sifatida kamol topishiga, balki jamiyatning intellektual va madaniy taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi(1-rasm).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yosh davri bolada ijodiy tafakkur, tasavvur va mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadigan eng muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni tasodifiy emas, balki maqsadli, tizimli va pedagogik jihatdan puxta tashkil etilgan faoliyatni talab qiladi. Ayniqsa, tarbiyachining kreativ roli bu jarayonda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki ijodiy muhit yaratuvchi, bolalarda tashabbus va erkin fikrlashni rag'batlantiruvchi shaxsdir. Uning innovatsion yondashuvlardan foydalanishi, o'yin, loyihaviy faoliyat, muammoli vaziyatlar va integratsiyalashgan ta'lim metodlarini qo'llashi bolalarning intellektual hamda estetik salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kreativ pedagog o'z faoliyatida bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, har bir bolaning ichki imkoniyatlarini ochishga intiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bolalarda mustaqil qaror qabul qilish, muammoni hal etish, tasavvur kengligi va ijodiy yondashuvni shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Biroq bu texnologiyalarning natijadorligi, avvalo, tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi, metodik tayyorgarligi va kreativ tafakkuriga bog'liqdir.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish.
2. Ta'lim jarayoniga innovatsion metodlarni (muammoli ta'lim, STEAM elementlari, loyihaviy faoliyat, ijodiy o'yin texnologiyalari) tizimli ravishda integratsiya qilish.
3. Har bir guruhda ijodiy muhitni shakllantirish, bolalarning erkin fikr bildirishi va tashabbus ko'rsatishi uchun pedagogik sharoit yaratish.

4. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali ijodiy rivojlanishning uzluksizligini ta'minlash.
5. Bolalarning ijodiy salohiyatini aniqlash va monitoring qilish uchun diagnostik vositalarni amaliyotga joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik jarayonning markaziy vazifalaridan biridir. Ushbu jarayonda tarbiyachining kreativ roli ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Innovatsion yondashuvlarga tayangan holda tashkil etilgan ta'lim muhiti bolalarda erkin tafakkur, tashabbuskorlik va ijodkorlikni shakllantirish orqali kelajakda barkamol shaxsni tarbiyalashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4327235>
2. Mirziyoyev, Sh. M. (2019). O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi. Rasmiy chiqishlardan.
3. Yuldasheva, Z. M. (2021). Ijodiy fikrlashni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalar. Maqsad va Natija, №3.
4. Torrance, E. P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking. Lexington, MA: Ginn & Co.
5. Vygotsky, L. S. (1996). Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
6. Yuldasheva, Z. M. (2021). Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: "Fan va taraqqiyot" nashriyoti.
7. Karimova, M. (2023). Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi orqali bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish. Ta'lim nazariyasi va amaliyoti, №2.
8. Torrance, E. P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking. Lexington, MA: Ginn & Co.
9. Altshuller, G. S. (1984). Creativity as an Exact Science: The Theory of the Solution of Inventive Problems (TRIZ). Gordon and Breach Science Publishers.
10. Guilford, J. P. (1950). Creativity. American Psychologist, 5(9), 444–454.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.